

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.San.51.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI**

KULTASHEV BAXROM TELMANOVICH

**1950-YILLAR IKKINCHI YARMI – 1960-YILLAR O‘ZBEKISTON
RANGTASVIRIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR**

17.00.04 – Tasviriy va amaliy bezak san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по искусствоведению**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
art sciences**

Kultashev Bahrom Telmanovich

1950-yillar ikkinchi yarmi – 1960-yillar O‘zbekiston rangtasviridagi
asosiy tendensiyalar 3

Култашев Бахром Телманович

Основные тенденции живописи Узбекистана во второй
половины 1950-х – 1960-х гг. 27

Kultashev Bahrom Telmanovich

Main tendencies of painting in Uzbekistan in the second
half of 1950-1960 years 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.San.51.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI**

KULTASHEV BAXROM TELMANOVICH

**1950-YILLAR IKKINCHI YARMI – 1960-YILLAR O‘ZBEKISTON
RANGTASVIRIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR**

17.00.04 – Tasviriy va amaliy bezak san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/San209 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fineartins.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedova Nigora Raximovna,
san’atshunoslik fanlari doktori, professor,
O‘zBA akademigi

Rasmiy opponentlar:

Ziyayev Abdumannop Abdurahimovich
arxitektura fanlari doktori, professor

Raximova Zuxra Ibragimovna,
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Dissertatsiya himoyasi San’atshunoslik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 02/30.12.2019.San51.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Mustakillik maydoni, 2. Tel.: (99871) 23994667, faks: (998971) 2391771, e-mail: siti1928@mail.ru).

Dissertatsiya bilan San’atshunoslik kutubxonasida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100029, Manzil: 100029, Toshkent shahri, Mustakillik maydoni, 2. Tel.: (99871) 23994667).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil “_____” _____ № _____ - raqamli reyestr bayonnomasi)

A.A.Xakimov,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi

A.X.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

I.A.Muxtarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asr boshida globallashtirish va dekolonizatsiya g'oyalari san'at tarixini, ayniqsa, XX asr san'atiga bo'lgan yondashuvlarni sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Zamonaviy amaliyot san'atning markazlashgan, iyerarxik modellaridan tobora ko'proq voz kechib, e'tiborni mahalliy, ilgari chetda qolgan badiiy hodisalarga qaratmoqda va dunyodagi badiiy tendensiyalar bilan muloqotda shakllangan, ammo global jarayonlarda madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolgan ko'plab milliy maktablar badiiy jarayonning ahamiyatli mavzusiga aylanmoqda. Bu mahalliy badiiy hodisalarning jahon madaniyatining xilma-xil va rang-barang makonini shakllantirishga qo'shgan hissasini qayta baholashni dolzarb masalalar qatoriga kiritmoqda.

Jahon zamonaviy san'atshunosligida ilgari asosan mafkura va senzura prizmasi orqali idrok etilgan sovet san'ati tarixini ham fanlararo va postkolonial yondashuvlar bilan o'rganish, tadqiqotlarda madaniy siyosat, milliy badiiy maktablarning shakllanishi va rivoji, modernizmni o'zlashtirish fenomeni, rassomlar ijodini kompleks yoritish masalalari ko'tarilmoqda. Milliy maktablarga bo'lgan qiziqishning faollashuvi XX asr badiiy jarayonlarining rivojlanishini aniqlashtirish, mafkuraviy bosim va ichki modernizatsiya sharoitida ularning o'zgarish xususiyatlariga yangicha qarash imkonini bermoqda. Milliy badiiy maktablar taraqqiyotini jahon san'ati bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganish, tarixiy-madaniy o'zgarishlar kesimida janrlar transformatsiyasini aniqlash zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston rangtasvirining "iliqlik" deb nomlangan va kelajakda milliy san'atning yuksalishiga asos bo'lgan 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillardagi tendensiyalarini o'rganish mafkuraviy cheklovlar sharoitida Yevropa badiiy shakllarining kirib kelishi va moslashuvi, milliy badiiy o'ziga xoslikning shakllanishi omillari hamda mahalliy an'analar global madaniy jarayonlar bilan muloqoti usullarini tushunish imkonini bermoqda. Shu nuqtai nazardan, davrning ijtimoiy-madaniy o'zgarishlari kesimida mavzu, obraz, janr va individual badiiy tilning yangiligini anglash muhimdir. "Har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi"¹. O'zbekiston san'atshunosligida ilmiy yondashuvlarning yangi mafkuraviy va estetik nuqtai nazardan yangilanishi o'tmishdagi ilmiy paradigmalarni zamonaviy metodologik yondashuvlar, jumladan, postkolonial va dekolonizatsiya diskursi, fanlararo tadqiqotlar kontekstida qayta ko'rib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3219-son "O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy

¹ Mirziyoyev SH. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – B.7.

san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 9-dekabrda PQ-36-son "Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-yanvardagi 8-son "Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti faoliyatini yanada takomillashtirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar san'atiga oid badiiy jarayonni alohida bosqich sifatida o'rganishda milliy rangtasvir maktabini yoritgan ilmiy manbalar bilan bir qatorda XX asr sovet san'ati badiiy tanqidchiligidagi tadqiqotlarga tayanildi. O'zbekiston rangtasviri shakllanishiga oid turli tanqidiy qarashlarni aks ettirgan ilk jiddiy nashrlar V.Chepelev, B.Veymarn, M.Kolin ishlari, keyinchalik mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan "Изобразительное искусство Советского Узбекистана (Очерк истории живописи, графики, скульптуры)" kitobi sanaladi². Ilmiy izlanishlardagi ma'lumotlar bir yoqlama qarashlarga, mafkuraviy mezonlarga bo'ysundirilgani sababli tadqiqotlarda mafkuraviy g'oyalarning ilm-fanga ta'sirini namoyon etadi. Ocherklar to'plamida mualliflar rassomlar tafakkurida realizm an'analari haqidagi tor tasavvurning o'zgarishi, tantanavor va rasmiy obrazlar o'rniga shaxsning ichki dunyosi aks ettirgan ifodaviy portretlarning paydo bo'layoganini alohida ta'kidlab o'tishgan.

1960-yillardan "iliqlik" taqdim etgan erkinlik tufayli respublika badiiy tanqidchiligidagi joriy va o'tgan davr san'atiga nisbatan qarashlar paydo bo'ladi. Xususan, L.Jadova o'z monografiyasida³ urushga qadar bo'lgan qarashlarni tanqid ostiga olib, realizm tushunchasini keng va turfa xil kontekstda ko'rib chiqish taklifi bilan chiqadi. Markaziy Osiyo respublikalari san'atini o'rgangan M.Xalaminskaya⁴ yosh rassomlar ijodida milliy o'ziga xoslik masalasi aktuallashtirishga urg'u berib, uni hududiy va madaniy-tarixiy omillar kesimida ko'rib chiqadi.

² Чепелев В.Н. Искусство Советского Узбекистана. – Ленинград: Изд-во Ленингр. обл. союза сов. худ., 1935. – 127 с; Колин Н. Изобразительное искусство Узбекской республики. – М.-Л.: Искусство, 1937. – 47 с. с ил.; Веймарн Б.В. Искусство Средней Азии. – Москва; Ленинград: Государственное издательство «Искусство», 1940. – 192 с; Изобразительное искусство Советского Узбекистана: (очерки истории живописи, графики, скульптуры) / Н.М. Абрамова, В.Н. Кедрин, С.М. Круковская и др. - Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1957. – 480 с.

³ Жадова Л.А. Современная живопись Узбекистана. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы, 1962. – 112 с.

⁴ Халаминская М.Н. Искусство молодых. Очерки о художниках республик Средней Азии и Казахстана. – М. Советский художник. 1967. – 164 с.

1970-1980-yillarga kelib vorisiylik va an'ana masalalarining dolzarblashuvi respublika san'atini o'rganish yo'nalishiga ta'sir ko'rsatadi. YE.Zinger, N.Dmitriyeva, V.Lakovskaya kabi olimlarning tadqiqotlarida realizmning yangilanishi fonida "sotsialistik realizm" tushunchasining o'zgarishi kuzatiladi. Katta avlod rassomlari ijodining rivojlanish xususiyatlariga e'tibor ortadi. L.Shostkoning "Оганес Татевосян", M.I.Zemskayaning "Александр Волков. Мастер "Гранатовой чайханы" monografiyalari, V.Ufimsevning "Говоря о себе" (1973) memuari, R.Taktashning O'.Tansiqboyev, A.Volkov ijodi, "Усто Мумин"⁵ kabi manbalarida mualliflar tomonidan vorisiylik, an'ana va yangilik, madaniy meros talqini, milliy o'ziga xoslik tamoyillari muammolariga alohida to'xtalib o'tilgan. Xususan, O'.Tansiqboyev ijodiga bag'ishlangan yana bir albomda ilk marotaba rassomning Nukus muzeyida saqlanayotgan ishlari tarixiy-nazariy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan⁶. "Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972"⁷ kitobida rangtasvirning umumiy rivoji badiiy jarayon kesimida, asosan ko'rgazmalarda nomlari tilga olingan rassomlarga tayanilgan holda tahlil etilgan ahamiyatli manba sifatida xizmat qildi. V.Lakovskayaning "Послевоенная станковая живопись Узбекистана" dissertatsiyasi⁸ ilk marotaba tarixiy-nazariy asosda tendensiyalar bo'yicha ilmiy tahlil qilishga qaratilgan tadqiqot sanaladi.

1990-yillardan A.Egamberdiyev, N.Abdullayev, A.Xakimov, N.Axmedova, K.Akilova⁹ tomonidan san'at tarixi, nazariyasi, badiiy tanqid borasidagi izlanishlari natijasida san'atshunoslik ilmidagi bo'shliqlar tizimli ko'riya boshlangan. Ular orasida XX asr badiiy jarayonlarining ilgari yetarlicha baholanmagan jihatlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqilgan ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, N.Axmedova monografiyasida hududning XX asr rangtasviri rivoji yangicha nigoh va talqin bilan o'rganishga e'tibor qaratiladi, Markaziy Osiyo milliy badiiy maktablarining etnomadaniy o'ziga xosligiga yondashuv yangilanadi. Dissertatsiyaning "Этнокультурные пластические идеи в национальных художественных школах региона" deb nomlangan bo'limi alohida qiziqish

⁵ О.К.Татевосян. Каталог. Сост. Л.Шостко. Автор вступ. статьи. М.Мюнц. – Ташкент, 1964. – 118 с.; Земская М.И. Александр Волков. Мастер "Гранатовой чайханы". – М.: Искусство, 1976. – 440 с.; Уфимцев В. Говоря о себе. – Т., 1973.; Урал Тансыкбаев. Альбом. Сост. и вступ. статья д. иск. Р.Х.Такташа. – Т.: Издательство литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1978. - 29 с.; Александр Волков. Альбом. Сост. и вступ. статья д. иск. Р.Х.Такташа. – Т.: Издательство литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1982. - 80 с.; Круковская С.М. Усто Мумин. Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1973. - 132с. с ил.; Усто-Мумин: Альбом /авт. вступ. статьи Р.Еремян. – Т., 1981. – 136 с.: ил.

⁶ Урал Тансыкбаев. Избранные произведения. Альбом. Автор вступительной статьи и составитель Н.Ахмедова. Москва, Советский художник, 1988. – 136 с.

⁷ Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972. Ав.коллектив: В.Долинская, П.Захидов, Т.Кадырова, Т.Силантеева, Р.Такташ, А.Умаров, Д.Фахретдинова. Научный редактор Л.И.Ремпель. Издательство "Советский художник", Москва. 1976. – 606 с.

⁸ Лаковская В.Л. Послевоенная станковая живопись Узбекистана. Основные тенденции / дисс. на соискание ...кан. искусс. 1984. – 156 с.

⁹ Эгамбердиев А. XX аср Ўзбекистон рангтасвирида картина ривожи. Санъат. фанлари доктори дис. ... – Т.: ЎзР ФАСИ, 2009. – 272 б.; Хакимов А. Новая узбекская живопись. – Ташкент: San'at, 2014. – 218 с.; Хакимов А. Ўзбекистан санъат тарихи. Кадимги давр, ўрта асрлар, хозирги замон. – Тошкент: Zilol buloq, 2022. – 528 б.; Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. Ташкент, 2004. – 224 с.; Акилова К. Тасвир ва талқин. –Т.: "Академнашр", 2016. – 198 б.; Оқилова К. Ёниб яшаган мусаввир (Рўзи Чориев) / Жаҳон адабиёти. 2013 №8. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/sanat/yonib-yashagan-musavvir-ruzi-choriev/>

uyg‘otadi. Shuningdek, rassomlarning ijodiy yo‘lini yoritgan monografik izlanishlar fonida ham davrdagi badiiy tendensiyalarning rivojlanish tamoyillari ochib berilgan. Bunga N.Axmedova va A.Xakimovning CH.Axmarov, N.Axmedovaning R.Axmedov ijodiga bag‘ishlangan nashrlarini misol qilish mumkin¹⁰.

N.Kultasheva va N.Yadgarovanning dissertatsiyalari¹¹ XX asr milliy rangtasvirini turli yondashuvlar asosida o‘rganishga bag‘ishlangan. N.Kultasheva muzey kolleksiyalarini o‘rganib, badiiy jarayondagi o‘zgarishlarni va ma‘lum bir davr rassomlarining ijodini ochib bersa, N.Yadgarova milliy rangtasvirda impressionizm tendensiyalarining rivojlanishini tahlil qilib, ularning turli bosqichlarda boyib borishini ta‘kidlaydi. Bu tadqiqotlar o‘rganilayotgan davr rangtasvirining xilma-xil tendensiyalarini tushunishga katta hissa qo‘shadi.

Y.Gerchuk, B.Groys, I.Golomshtok, G.Pletnyova, N.Dmitriyeva, A.Yakimovich, Ye.Dyogot¹² kabi xorijiy olimlar XX asr san‘atini tarixiy-madaniy kesimda falsafiy anglashga harakat qilishgan. Ularning tadqiqotlari davrdagi badiiy tendensiyalar rivoji haqidagi tasavvurlarni yangilashga yordam beradi. Masalan, B.Groys sosrealizmni avangardga qarama-qarshi emas, balki uning davomi sifatida qaraydi, yangi jamiyatni yaratishga intilayotgan g‘oyalar va siyosiy strategiyalardagi o‘xshashliklarni aniqlaydi. I.Golomshtok esa go‘yo B.Groysning g‘oyalarini rivojlantirgandek totalitar tuzumlarining avval madaniyatni boshqarish mexanizmini qurishi, so‘ng esa ushbu madaniyatning tuzilmasi va g‘oyaviy tamoyillarini belgilashi, oxir oqibat bu jarayon rasmiy davlat stiliga aylanishini asoslab beradi. Ushbu yondashuvlar sovet san‘atida, shu jumladan, O‘zbekistonda 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillarda badiiy jarayonning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Ye.Dyogot “Русское искусство XX века” monografiyasining “Konseptual loyiha” bobida iliqlik davridan boshlab san‘atda nonkonformizm, sos-art, Moskva konseptualizmi kabi fenomenlarning paydo bo‘lganiga e‘tibor qaratgan. Ingliz tadqiqotchisi Susan E. Reidning¹³ tadqiqotlari ham badiiy jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘sha davrning tarixiy voqealari bilan bog‘liq gender masalalarini tushunishga asos bo‘ldi.

¹⁰ Хакимов А. Нетленный свет. Жизнь и творчество Чингиза Ахмарова. – Ташкент: 2018. – 348 с. илл; Чингиз Ахмаров. Хранитель Сада / сводный каталог произведений. Текст Н.Ахмедова, общая ред. И.Галеева. – М.: 2010. – 279 с. илл. Ахмедова Н. Рахим Ахмедов. вступ. ст. и общ. ред. Э. Ахмедовой. – М.: Фонд Марджани, 2018. – 524 с.: ил.

¹¹ Култасева Н.Д. Ўзбекистон музейларида миллий рангтасвир коллекцияларининг шаклланиши. 17.00.04 – Тасвирий ва амалий безак санъати. Санъ. ф.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент: – 2022. – 158 б; Ядгарова Н.А. Тенденции импрессионизма в живописи Узбекистана XX-начала XXI века. 17.00.04 – Изобразительное и декоративно-прикладное искусство. Диссертация на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по искусствоведению. Т.: – 2022. – 176 с.

¹² Герчук Ю.Я. Коммуникации по поводу свободы. Авангардные тенденции искусства «оттепели» // Вопросы искусствознания, 1993. - № 4. - С. 175-188; Гройс Б. Gesamtkunstwerk Сталин. – Москва: ООО «Ад Маргинем Пресс», 2013, - 168 с.; Голомшток И. Тоталитарное искусство. – Москва: “Галаарт”. 1994. 296 с.; Дёготь Е. Русское искусство XX века. – Москва: «Трилистник». 2002. – 224 с.; Плетнёва Г.В. Ангажированная культура. Опыт анализа художественной критики и живописной практики позднесоветского времени: 1960-1980 годы. Автореферат доктора искусствоведения. – Москва: 2002.; Дмитриева Н. В поисках гармонии. Искусствоведческие работы разных лет. – Москва: «Прогресс-Традиция». 2009. 910 с.; Якимович А.К. Позднесоветское искусство России, 1960–1991 // Позднесоветское искусство России. Проблемы художественного творчества. – Москва.: Букс Март, 2019. – С. 400–470.

¹³ Susan E. Reid, ‘Masters of the Earth: Gender and Destalinisation in Soviet Reformist Painting of the Khrushchev Thaw’. Gender & History, Vol.11 No.2 July 1999, pp. 276–312.

2022-yilda Moskvada o'tkazilgan «Советское искусство на переломе: от 1960-х к 1980-м. К 60-летию выставки “30 лет МОСХ” в московском “Манеже» ilmiy konferensiyasi ilmiy jamoatchilikning davrga bo'lgan qiziqishi va uni qayta o'rganish zarurati mavjudligidan darak beradi. Unda ko'rgazma sovet san'atining keyingi o'ttiz yilligini boshlab bergan nuqta bo'lganiga alohida urg'u berilgan ¹⁴. Muhokama doirasida "iliqlik"ning badiiy tendensiyalarning shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatganiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu davr “modernizmning tiklanishi”, “san'atni zamonaviylikka qaytarish”, “zamonaviylik va yangilanish”, “dialog va diskussiya”, “informasion maydonning kengayishi”¹⁵ kabi asosiy konsepsiyalar bilan tavsiflanadi. Bu tushunchalar o'rganilayotgan davr madaniy hayotidagi o'zgarishlarning dinamikasi, shuningdek, ijodiy o'zlikni namoyon etish va intellektual munozaralar uchun yangi ufqlarning ochilayotganini belgilab beradi.

Bir qator tarixiy-nazariy va monografik masalalarni yoritgan adabiyotlarning katta majmuiga qaramay mazkur davr O'zbekiston rangtasviri alohida janrlar kesimida, ko'p hollarda sanoqli rassomlar ijodi misolida o'rganilgani aniqlandi. Shu bilan birga, badiiy jarayonlar yangilangan san'atshunoslik va badiiy tanqidchilik nuqtai nazariga asoslangan holda turli avlod vakillarining ijodidagi o'zgarishlar, milliy o'ziga xoslik va modernizm rangtasviri ta'siri kesimida tahlil etilmagani namoyon bo'ldi. 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar rangtasvirini o'rganish realizmning obrazli va uslubiy xilma-xilligining va janrlar tizimining shakllanishi, milliy o'ziga xoslik va etnomadaniy meros kabi masalalarni oydinlashtirishga asos bo'ladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Tasviriy va amaliy bezak san'atini tadqiq etishning tarixiy-nazariy masalalari” mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar O'zbekiston rangtasviridagi asosiy tendensiyalarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekiston rangtasvirining tarixiy-nazariy o'rganilishiga doir masalalarni ochib berish;

“iliqlik” davri san'atiga tarixiy-siyosiy va madaniy jarayonlarning ta'sirini aniqlash;

portret va janrli kartinada yangilanish tendensiyalarni rassomlar ijodi misolida asoslash;

manzara janrida vorisiylik va an'analar masalasini aniqlash;

¹⁴ Советское искусство на переломе: от 1960-х к 1980-м. К 60-летию выставки «30 лет МОСХ» в московском «Манеже» // Коллект. монография по мат-лам научной конференции. 2–3 июня 2022 г. РАХ, Москва / Науч. рук. Д.О. Швидковский, науч. ред. Е.О. Романова. – Москва: Российская академия художеств, 2022. – 324 с.

¹⁵ Флорковская А.. Советское искусство на переломе: от 1960-х к 1980-м. К 60-летию выставки «30 лет МОСХ» в московском «Манеже» // Коллект. монография по мат-лам научной конференции. 2–3 июня 2022 г. РАХ, Москва / Науч. рук. Д.О. Швидковский, науч. ред. Е.О. Романова. – Москва: Российская академия художеств, 2022. – С.14.

rangtasvirning yangilanishida milliy o'ziga xoslik va madaniy merosning rolini hamda uning "an'analar va yangilik" konsepsiyasi bilan aloqadorligini asoslash;

modernizm tajribasining O'zbekiston rassomlari ijodiga ta'sirida badiiy-tasviriy izlanishlar o'zgarganligi, an'analar va yangilikda davr konsepsiyasi namoyon bo'lganini dalillashdan iborat.

Tadqiqotning obekti sifatida 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar O'zbekiston rangtasviri belgilandi.

Tadqiqotning predmetini mazkur davr rangtasviridagi asosiy tendensiyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ijtimoiy-madaniy, qiyosiy va tahliliy yondashuv, tarixiylik, vorisiylik, ilmiy xolislik tamoyillarini o'z ichiga olgan kompleks usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

rangtasvirning janrli va obrazli transformatsiyalari natijasida mahobatlilik, ekspressiya, plastik ifodaviylik dastgohli kartinalarga xos xususiyatga aylangani, manzara, portret, natyurmort kabi janrlarda tasviriy-plastik ijodning falsafiy-g'oyaviy va badiiy boyishi, chuqurlashuvi va yangilanishi tendensiyalari yuzaga kelgani asoslangan;

realizm yo'nalishi rassomlari Ch.Axmarov, A.Abdullayev, R.Axmedov, R.Choriyev, V.Burmakin, G.Ulko va boshqalarning xalq obrazi tipologiyasi va uning milliy xususiyatlarini yangilashdagi obrazli va uslubiy kashfiyotlari madaniy merosning tasviriy-ifodaviy hamda koloristik an'analari, shuningdek G'arb postimpressionizmga tayanib, sovet san'atining avvalgi sxematik va meyoriy stereotiplari doirasidan chiqish imkonini berganligi dalillangan;

"iliqlik" davrida avlodlar o'rtasida ijodiy muloqot sodir bo'lgani, ularning badiiy tafakkuri differentsiatsiyasi, "an'ana va novatorlik"ning turlicha talqini sodir bo'lgani, jumladan, katta avlod vakillari shakllar ifodaviyligi va dekorativligi foydasiga sotsrealizm tamoyillaridan ozod bo'lishga intilgani, yosh rassomlar esa san'at asarining mavzudan holi qiymatini tiklash, badiiy ifodaviylikda postimpressionizm va modernizm tajribalari ustida izlanish olib borgani asoslangan;

o'zbek rassomlari tomonidan jahon rangtasviridagi zamonaviy tendensiyalarni anglash natijasida rangtasvir asarining qiymati uning mavzusi bilan emas, balki shakliy sifatlariga bog'liqligi bilan belgilanishi, kompozitsiyaning asosiy elementlari rang, chiziq va teksturaning o'zaro uyg'unligi masalasining birlamchi qo'yilishi, rassomlar ijodida 1920-1930-yillardagi tasviriy-plastik tajribalarga qaytish, xalq badiiy merosiga murojaat, milliy o'ziga xoslik yo'lidagi izlanishlar, G'arb zamonaviy san'ati oqimlarini o'zlashtirish kabi asosiy badiiy tendensiyalar 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar O'zbekiston rangtasvirida uslubiy rang-baranglik va ko'p darajali badiiy tuzilmani hosil qilgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

rassomlarning ijodiga oid yangilangan manbalar milliy rangtasvir tarixiga oid manbashunoslik bazasini kengaytirgan va bu kuratorlar, san'atshunoslar, muzey

xodimlari uchun ekspozitsiyalarni yangilash, badiiy ko'rgazmalar o'tkazish, shuningdek, mazkur davrga oid san'at asarlarini atribusiyalash va ekspert baholashda foydalanilgani isbotlangan;

"iliqlik" davri rangtasvirining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, monumentallik, ekspressiya, tekislik va konstruktiv ifoda tendensiyalari badiiy tahlil va tanqidning metodologik asosini boyitib, O'zbekiston rangtasviriga oid yangi avlod o'quv qo'llanma va darsliklarida qo'llash imkoniyati asoslangan;

tadqiqotda ochib berilgan badiiy yondashuv xususiyatlari, turli avlod rassomlari ijodida "an'ana va novatorlik" konsepsiyasi talqini hamda milliy o'ziga xoslik kabi masalalar zamonaviy milliy san'atshunoslikning yangilangan nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qilgani isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy san'atshunoslikning sinalgan metodlari hamda nazariy yondashuvlarning qo'llanilgani, O'zbekiston muzeylaridagi kolleksiya, arxiv materiali va katalog tizimi kabi birlamchi manbalarga asoslangani, ilmiy-amaliy xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ko'rsatilgan davr badiiy jarayonidagi o'zgarishlarni tahlil qilish, an'anaviy va yangi badiiy oqimlarning o'zaro ta'siri aniqlangani bilan belgilanadi. XX asr O'zbekiston rangtasviri taraqqiyotining asosiy tendensiyalarini ochib berishda badiiy jarayonni tarixiy-nazariy jihatdan tadqiq etish eng samarali ekanligi, bunday yondashuv milliy san'at evolyusiyasining umumiy qonuniyatlarini yangilangan va chuqurroq nuqtai nazardan ko'rib chiqish imkonini bergan. 1950-yillarning ikkinchi yarmi va 1960-yillar san'atidagi o'zgarishlarni o'rganish natijasida milliy rangtasvir taraqqiyotining ushbu bosqichiga oid kam o'rganilgan yoki ilgari noma'lum bo'lgan manbalar va asarlar ilk bor tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada aniqlangan natijalar milliy rangtasvir tarixi mavzusiga aloqador noshirlik materiallarini chop etishda, yangi monografik va tematik ko'rgazmalar tayyorlashda hamda O'zbekiston rangtasviri shakllanishiga bag'ishlangan istiqboldagi ilmiy-tadqiqot ishlarida samarali natija berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 1950-yillar ikkinchi yarmi – 1960-yillar O'zbekiston rangtasviridagi asosiy tendensiyalarni tadqiq etish yuzasidan ishlab chiqilgan xulosa va takliflar asosida:

rangtasvirning janrli va obrazli transformatsiyalari natijasida mahobatli ekspressiya, ifoda usulining konstruktiv aniqligi dastgohli kartinalarga xos xususiyatga aylangani, manzara, portret, natyurmort kabi janrlarda tasviriy-plastik ijodning falsafiy-g'oyaviy va badiiy boyishi, chuqurlashuvi va yangilanishi tendensiyalariga oid xulosalar o'quv qo'llanmada aks etgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrug'i). Natijada, o'quv qo'llanmadagi ma'lumotlar talabalarda 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar rangtasviridagi asosiy tendensiyalar, janrli va uslubiy afzalliklar haqida ma'lumot hosil bo'lishiga xizmat qilgan;

realizm yoʻnalishi rassomlari Ch.Axmarov, A.Abdullayev, R.Ahmedov, R.Choriyev, V.Burmakin, G.Ulko va boshqalarning xalq obrazi tipologiyasi va uning milliy xususiyatlarini yangilashdagi obrazli va uslubiy kashfiyotlari madaniy meros va Gʻarb postimpressionizmining tasviriy-plastik anʼanalariga tayanib, sovet sanʼatining avvalgi sxematik va meyoriy stereotiplari doirasidan chiqish imkonini berganligi dalillangan maʼlumotlardan M.Nabiyev, R.Axmedov, R.Choriyev kabi rassomlarning yubileyiga bagʻishlangan konferensiyalarda foydalanilgan (Oʻzbekiston Badiiy akademiyasining 2024-yil 8-maydagi №PP20772324 maʼlumotnomasi). Natijada, 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillardagi badiiy jarayon rekonstruksiya va Gʻarb modernizmi tamoyillarining ijodiy izlanishlar taʼsiri omillari aniqlangan;

“iliqlik” davrida avlodlar oʻrtasida ijodiy muloqot sodir boʻlgani, ularning badiiy tafakkuri differentsiatsiyasi, “anʼana va novatorlik”ning turlicha talqini sodir boʻlgani, jumladan, katta avlod vakillari shakllar ifodaviyligi va dekorativligi foydasiga sotsrealizm tamoyillaridan ozod boʻlishga intilgani, yosh rassomlar esa sanʼat asarining mavzudan holi qiymatini tiklash, badiiy ifodaviylikda postimpressionizm va modernizm tajribalari ustida izlanish olib borgani haqidagi maʼlumotlar “Tasviriy va amaliy sanʼat tarixi” mutaxassislik fanidan tayyorlangan oʻquv qoʻllanmada aks etgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrugʻi). Natijada, XX asrning ikkinchi yarmi Oʻzbekiston rangtasviridagi badiiy jarayonlar yangilangan ilmiy nazariya va manbalar orqali yoritilgan;

jahon rangtasviridagi zamonaviy tendensiyalarni anglash natijasida rangtasvirda kartinaning qiymati uning mavzusi emas, balki shakliga bogʻliqligi bilan belgilanishi, kompozitsiyaning asosiy elementlari rang, chiziq va makonning oʻzaro uygʻunligi masalasining birlamchi qoʻyilishi, rassomlar ijodida 1920-1930-yillardagi tasviriy-plastik tajribalarga qaytish, xalq badiiy merosiga murojaat, milliy oʻziga xoslik yoʻlidagi izlanishlar, Gʻarb zamonaviy sanʼati oqimlarini oʻzlashtirish kabi asosiy badiiy tendensiyalar retrospektiv, yubiley va mavzuli koʻrgazmalarda aks etgan (Oʻzbekiston Badiiy akademiyasining 2024-yil 8-maydagi №PP20772324 maʼlumotnomasi). Natijada, 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar Oʻzbekiston rangtasvirida uslubiy rang-baranglik va koʻp darajali badiiy tuzilmani hosil qilgani haqidagi dalillangan maʼlumotlar koʻrgazmalar konsepsiyasiga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 5 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 7 ta ilmiy maqola nashr etilgan boʻlib, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnalda 2 ta ilmiy maqola eʼlon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tarkib topgan boʻlib, umumiy hajmi 132 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot obekti va predmeti belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning amaliyotga tadbiiq etilganligi bayon etilgan, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar O‘zbekiston badiiy hayotida jamiyatning demokratizatsiya jarayonlari**» nomi ostidagi birinchi bobi ikki bo‘limdan iborat. Bobning «**1950-yillar ikkinchi yarmi – 1960-yillar O‘zbekiston rangtasvirining tarixiy-nazariy o‘rganilishi**» nomli birinchi bo‘limida davr san‘atini XX-XXI asr boshlarida yozilgan ilmiy-nazariy manbalariga tayanib o‘rganish ijtimoiy-g‘oyaviy, ma‘naviy va badiiy transformatsiyalar bilan bog‘liq murakkab metodologik muammoni yuzaga keltirishi asoslangan. Chunki, XX asrning ikkinchi yarmidan respublikada jonlangan badiiy tanqid, chop etilayotgan risola va to‘plamlarda chuqur mafkuraviy g‘oyalar, san‘atga mafkuraviy targ‘ibot yoki xalqchillik nuqtai nazaridan munosabat ko‘p hollarda rangtasvirning haqiqiy estetik va badiiy xususiyatlarini to‘laqonli yoritmagan yoki davr mafkurasiga zid bo‘lgan asarlarning tadqiqotlarga kirmay qolishiga sabab bo‘lgan.

Agar V.Chepelev ilk marotaba O‘zbekiston rangtasviri shakllanishidagi o‘ziga xoslik muammosini olib chiqqan bo‘lsa¹⁶, B.Veymarn va M.Kolinning ishlarida¹⁷ g‘oyaviy cheklov natijasida san‘atning yo‘nalishi o‘zgarishi, badiiy-tasviriy tajribalarga to‘la 1920-1930-yillar san‘atiga tanqidiy nigohni ko‘rishimiz mumkin. Mualliflar jamoasi tomonidan yoritilgan kitobda¹⁸ inqilobdan to 1950-yillargacha tasviriy san‘at rivoji bir yoqlama qarashlarga, sotsrealistik etalonga bo‘ysundirilgani sababli unda mafkuraviy g‘oyalarning ilm-fanga ta‘siri vektori namoyon bo‘ladi. B.V.Veymarn va N.V.Cherkasova¹⁹ davr badiiy tanqidchiligiga xos realistik san‘at metodining mustahkamlanishi, san‘atning targ‘ibot-tashviqot, ma‘daniy-ma‘rifiy roliga urg‘u berishgan. Shunga qaramay, tahlil etilgan materiallar orqali 1950-yillarning ikkinchi yarmidan rassomlar tafakkurida realizm haqidagi tor tasavvurning o‘zgarishi, romantik va qahramonona obrazlar o‘rniga psixologik portretlarning paydo bo‘lishini kuzatish mumkin.

1960-yillarda jonli va “qaynoq” material bilan ishlovchi yangi tanqidiy qarashlar paydo bo‘ldi. Nisbatan obektiv yondashuvga ega L.Jadova o‘z

¹⁶ Чепелев В.Н. Искусство Советского Узбекистана. – Ленинград: Изд-во Ленингр. обл. союза сов. худ., 1935. – 127 с.

¹⁷ Колин Н. Изобразительное искусство Узбекской республики. – М.-Л.: Искусство, 1937. 47с. с ил.; Веймарн Б. В. Искусство Средней Азии. – Москва ; Ленинград : Государственное издательство «Искусство», 1940. – 192 с.

¹⁸ Изобразительное искусство Советского Узбекистана: (очерки истории живописи, графики, скульптуры) / Н. М. Абрамова, В. Н. Кедрин, С. М. Круковская и др. - Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1957. - 480 с.

¹⁹ Веймарн Б.В., Черкасова Н.В. Искусство Советского Узбекистана. Очерки. Живопись. Гарфика. Скульптура. – Москва: 1960. – 119 с.

izlanishlarida²⁰ badiiy an'analar, tarixiy vorisiylik masalalarini tiklash maqsadida XX asrning ilk choragidagi san'atga murojaat qiladi, janrlarning rivoji omillariga obektiv tahliliy yondashuvda munosabat bildiradi. Muallif realizmda shartlilik, dekorativlik va obrazni umumlashma ramziyligi bo'lishi mumkinligini belgilash orqali O'zbekiston rangtasvirida realizmni nisbatan kengroq tushunish taklifini kiritadi.

M.Xalaminskaya, R.Taktash, A.Umarov, S.Krukovskayaning²¹ ishlari davr san'atidagi o'zgarishlarni anglashda alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo davlatlari rangtasviridagi yosh ijodkorlarni o'rganish asosida M.Xalaminskaya ilk marotaba hududiy rang-baranglikni belgilashga harakat qiladi. Xususan, R.Axmedov, M.Saidov, G.Ulko kabi davrning yosh rassomlari rangtasviri misolida obrazli-plastik transformatsiyalarda milliy o'ziga xoslik masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ye.Zinger ilk marotaba respublikalarning milliy maktablari materiali asosida badiiy madaniyatning milliy va umumbashariy rivojlanish muammolarini ko'taradi²². Uning tahlillariga ko'ra "1960-yillarning oxirlarida barcha respublikalarda bir qator yirik va qisman yosh rassomlar ijodida hayotiy hodisalarni shaxsiy talqin etishga burilish, obrazlarning subektiv ko'tarinkiligi kuzatiladi"²³. Ta'kidlash joizki, G'arb san'atining uslubiy xususiyatlarini anglashga intilish tendensiyasi, ijodda individual badiiy oshkoralik sodir bo'layotgan davrda V.Burmakin, G.Ulko, Ye.Melnikov, Yu.Taldikin, R.Choriyev, B.Boboyev kabi rassomlarning ijodi tanqidchilar e'tiboridan chetda qolgan edi. Bu jarayonni o'rganish sovet davri badiiy madaniyatining spetsifikasi va o'zgarishlar mexanizmini anglashga imkon ochadi.

1970-1980-yillarga kelib vorisiylik va an'ana masalalarining dolzarblashuvi respublika san'atini o'rganish yo'nalishiga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, XX asr boshidagi rassomlar ijodiga qiziqish ortadi. L.Shostkoning «Оганес Татевосян», M.I.Zemskayaning «Александр Волков. Мастер "Гранатовой чайханы"» monografiyalarida, V.Ufimsevning «Говоря о себе» memuari, R.Taktashning O'.Tansiqboyev, A.Volkov, N.Kashina²⁴ ijodiga bag'ishlangan manbalarida mualliflar tomonidan vorisiylik, an'ana va yangilik, madaniy meros talqini, milliy o'ziga xoslik tamoyillari muammolariga ham to'xtalib o'tilgan.

O'rganilayotgan davrga xos umumiy uslubiy chizgilarni ilk marotaba tarixiy-nazariy asosda tendensiyalar bo'yicha ilmiy tahlil qilishga qaratilgan tadqiqot

²⁰ Жадова Л.А. Современная живопись Узбекистана. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы, 1962. – 112 с.

²¹ Халаминская М.Н. Искусство молодых. Очерки о художниках республик Средней Азии и Казахстана. – М. Советский художник. 1967. – 164 с.; Круковская С.М. В мире сокровищ. – Ташкент, Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1964. 210 с. с ил.; Умаров А.Р. Абдулхак Абдуллаев. – М.: Сов. художник, 1972. – 32 с.; Токтош Р. Бахром Хамдамий. Гофур Гулом ном. бадий адабиёт нашриёти. – Тошкент: 1969. – 56 б.

²² Зингер Е.А. Проблемы интернационального развития советского искусства. Проблемы художественного творчества. – Москва: Советский художник. 1977. – 271 с.

²³ Зингер Е.А. Проблемы интернационального развития советского искусства. Проблемы художественного творчества. – Москва: Советский художник. 1977. – Б.18.

²⁴ О.К.Татевосян. Каталог. Сост. Л.Шостко. Автор вступ. статьи. М.Мюнц. – Ташкент, 1964. – 118 с.; Земская М.И. Александр Волков. Мастер "Гранатовой чайханы". – М.: Искусство, 1976. – 440 с.; Уфимцев В. Говоря о себе. – Т., 1973.; Урал Тансыкбаев. Альбом. Сост. и вступ. статья д. иск. Р.Х.Такташа. – Т.: Издательство литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1978. – 29 с.; Александр Волков. Альбом. Сост. и вступ. статья д. иск. Р.Х.Такташа. – Т.: Издательство литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1982. – 80 с.

V.Lakovskayaning dissertatsiyasi sanaladi ²⁵. U milliy rangtasvir maktabini yaratishga hissa ko‘shgan yirik rassomlar ijodini tizimlashtirish asosida milliy rangtasvir rivojining asosiy davrlari va yo‘nalishlarini kuzatgan holda 1960-yillardagi shakllanish bosqichini ko‘p millatli sovet san‘ati rivojining umumiy qonuniyati sifatida belgilaydi.

Ittifoq parchalanganidan so‘ng va postmodernistik paradigma sharoitida sovet san‘atini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. B.Groysning «Gesamtkunstwerk Stalin»²⁶ kitobida davlatga total san‘at shakli sifatida qaraladi, u tarixiy-falsafiy kontekstda estetik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Muallif shaxsga sig‘inish davridagi avangard va madaniyat o‘rtasidagi farqlarga, ayniqsa, an‘ana va merosga munosabatga alohida e‘tibor qaratadi. I.Golomshtokning "Тоталитарное искусство"²⁷ kitobi mafkuraga bo‘ysundirilgan san‘atning dastlabki fundamental tadqiqotlaridan biri bo‘ldi. Maqsadlar turlicha bo‘lishiga qaramay, har ikkala asar ham o‘sha davr san‘atini avangard va avtoritar estetikaning o‘zaro ta‘siri mahsuli sifatida talqin qilishda bir-biriga mos keladi.

Norasmiy san‘at tarixini o‘rganishda Y.Gerchuk, A.Yakimovichning ishlari²⁸ so‘nggi sovet rangtasvirining ichki mexanizmi, mantig‘ini anglashga qaratilgan. N.Dmitriyeva “В поисках гармонии” to‘plamida²⁹ XX asr san‘atiga nafaqat tarixchi va nazariyotchi, shuningdek badiiy tanqidchi sifatida mulohazalarini bayon etadi. U e‘tiborga molik ko‘rgazma va kitoblarga tayangan holda badiiy tanqid metodologiyasi, “iliqlik” davrida rangtasvirdagi badiiy stil haqida mulohaza yuritadi va 1950-yillarning oxiri - 1960-yillardagi sovet san‘atining estetik gorizontlari kengayishi zaruriyatini qat‘iy belgilaydi. V.Turchin esa «Образ двадцатого... В прошлом и настоящем» monografiyasida XX asrdagi badiiy jarayondagi yirik hodisalarni bayon qilish asosida modernizm fonida sotsialistik realizmning asosiy tamoyillariga to‘xtalib o‘tadi. Ye.Dyogot XX asr rangtasviri rivojini tahlil qilishda uning tarixiy-siyosiy va g‘oyaviy omillariga e‘tibor qaratdi va “sotsrealizm”dan metod sifatida emas, balki maksad, vosita sifatida foydalanadi ³⁰.

1990-yillardan O‘zbekistonda ham san‘at tarixidagi badiiy tendensiyalarni yangilangan nigoh va fanlararo yondashuvda o‘rganish dolzarblashdi. A.Xakimovning ilmiy nashrlari XX asr san‘ati tabiatini madaniy mahsulot sifatida anglash nuqtai nazarini o‘zgartiradi, san‘at tarixi, rassomlar ijodini falsafiy-madaniy, ramziy-semantik nuqtai nazardan mushohada etishga asos bo‘ladi³¹. Zamonaviy

²⁵ Лаковская В.Л. Послевоенная станковая живопись Узбекистана. Основные тенденции / дисс. на соискание ...кан. искусств. 1984. – 156 с.

²⁶ Гройс Б. Gesamtkunstwerk Сталин. – Москва: ООО «Ад Маргинем Пресс», 2013. – 168 с.

²⁷ Голомшток И. Тоталитарное искусство. Москва: “Галаарт”. 1994. – 296 с.

²⁸ Герчук Ю.Я. Коммуникации по поводу свободы. Авангардные тенденции искусства «оттепели» // Вопросы искусствознания, 1993. - № 4. - С. 175-188; Якимович А.К. Позднесоветское искусство России, 1960–1991 // Позднесоветское искусство России. Проблемы художественного творчества. – М.: Букс Март, 2019. – С. 400–470.

²⁹ Дмитриева Н. В поисках гармонии. Искусствоведческие работы разных лет. – Москва: «Прогресс—Традиция». 2009. 910 с.

³⁰ Дёготь Е. Русское искусство XX века.- 2000. 220 с.

³¹ Хакимов А. Новая узбекская живопись. – Ташкент: “San‘at”, 2014. – 218 с.; Хакимов А. Нетленный свет. Жизнь и творчество Чингиза Ахмарова. – Ташкент: 2018. – 348 с. илл; Хакимов А. XIX – XXI асрлар Ўзбекистон санъатида утопия (миллий рангтасвир генезисини ўрганишга доир) // SAN‘AT. –Тошкент, 2010.- №1.-Б.18-24.

ilmiy-metodologik yondashuvlarga asoslangan XX asr rangtasviridagi badiiy jarayonlarni Markaziy Osiyo davlatlari san'ati misolida ko'rib chiqqan san'atshunos N.R.Axmedovaning tadqiqoti³² sovet san'ati tarkibida shakllanib borgan milliy badiiy maktablarda badiiy paradigmalar o'zgarishi kabi markaziy masalalarga yangicha konseptual va original yondashuvi bilan belgilanadi. Shuningdek, K.Akilovning O'zbekiston rangtasvirining tarixi, zamonaviy san'atda milliy va umumbashariy qadriyatlarga bag'ishlangan tadqiqotlari badiiy jarayondagi vorisiylik ildizlarini mushohada qilishga undadi³³.

Tadqiqotlarni o'rganish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, deyarli barcha mualliflar 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar san'atida burilish nuqtasi sodir bo'lgani, rassomlar uchun yangi yo'llar ochganini ta'kidlashadi. Bu davrda ilk marotaba milliy maktab masalasi paydo bo'ldi. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davrdagi ko'plab rassomlarning ijodi bir qator nashrlarda aks ettirilgan bo'lsa-da, ko'plab rassomlar yetarlicha o'rganilmagan (M.Saidov, D.Imomov, L.Salimjonova, Y.Taldikin, G.Ulko va boshqalar).

“Iliqlik” davri yirik o'zgarishlarning boshlang'ich nuqtasi bo'lishiga qaramay, yuqorida tahlil etilgan manbalar san'atshunoslikda 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar O'zbekiston rangtasviri asosiy badiiy tendensiyalar bir butunlikda, yaxlit ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tarixiy-nazariy kesimda o'rganilmaganini ko'rsatadi. Milliy rangtasvir maktabi shakllanishi, rangtasvir tarixidagi asosiy tendensiyalarning tadriji va zamonaviy badiiy jarayonning ijtimoiy-madaniy, tarixiy bog'liqligini tizimli anglash uchun ushbu davrni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Mazkur davrni zamonaviy ilmiy metodika yordamida o'rganish orqali qay tarzda badiiy qarashlarning o'zgarishi, san'atdagi erkinlashuv jarayonining boshlanganini ko'rib chiqish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ikkinchi bo'lim «**Ijtimoiy-madaniy kontekst va uning davr rangtasviriga ta'siri**» omillarini o'rganishga bag'ishlangan. O'zbekiston rangtasvir san'atida ko'pgina muhim tarixiy-madaniy voqealar va yangiliklar bilan bog'liq bo'lgan muhim o'zgarishlar 1950-yillarning ikkinchi yarmidan sodir bo'la boshladi.

I.Stalin shaxsiga sig'inish qoralanib, mafkuraviy tazyiqqa asoslangan "temir parda" olib tashlangach, sovet madaniyati va san'atida sotsrealizm aqidaparastligidan qutulish, ijodiy erkinlik jarayonlari boshlanib, "iliqlik" nomini oldi (Ilya Erenburg). Sotsialistik realizmga bo'lgan talabning pasayishi rassomlar ixtiyoridagi mavzular va uslubiy yondashuvlar dorasini kengaytirdi, san'atda demokratizatsiya jarayonlari boshlandi. L.Jadova ta'kidlaganidek “sotsialistik realizm metodining birligi tushunchasi noto'g'ri va samarasiz bo'lgan uslubning birligi talabalari asosida tushunilishi nafaqat individual stilning yo'q bo'lib ketishiga, balki aksariyat hollarda milliy o'ziga xoslikning yo'qolishiga olib keldi”³⁴.

³² Axmedova N.P. Особенности развития живописи государств Центральной Азии XX века: Дис... докт. искусствоведения. АНУз ИИ – Ташкент: 2003. – 315 с.

³³ Ўзбекистон тасвирий санъати. Кириш мақоласи муаллифи К.Акилова. – Москва. “Галаарт”. – 2013. 231 с. Акилова К. Тасвир ва талқин. –Т.: “Академнашр”, 2016. – 198 б.; Окилова К. Ёниб яшаган мусаввир (Рўзи Чориев) / Жаҳон адабиёти. 2013 №8. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/sanat/yonib-yashagan-musavvir-ruzi-choriev/>

³⁴ Жадова Л.А. Современная живопись Узбекистана. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы, 1962. – С. 100.

1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillarning boshida Moskva va Leningradda o‘tkazilgan umumittifoq ko‘rgazmalari, 1961, 1962 yillarda Toshkentda xay’at a’zolarining ishtirokisiz (bez vistavkomov) ko‘rgazmaning o‘tkazilishi yangi avlod vakillari uchun zamonaviy badiiy tendensiyalar bilan tanishishga imkon yaratdi va o‘z o‘rnida ijodiy eksperimentlarning jonlanishiga sabab bo‘ldi. Badiiy hayotning faollashuvi, butunittifoq bo‘ylab yirik ko‘rgazmalarni tashkil etilishi rassomlarni yangicha rangtasvir yechimlari ustida izlanishlar olib borishlariga turtki berdi. Xorijiy mamlakatlar bo‘ylab ko‘plab sayohatlar milliy rangtasvirda mavzular doirasining boyishiga sabab bo‘ldi. Bu esa o‘rganilayotgan davrdagi badiiy jarayonda uslubiy rang-baranglikni hosil qilgan. Bu, o‘z navbatida, milliy maktablarni ko‘rgazmalarda, ilmiy anjumanlarda namoyish etishga e’tiborni kuchaytirdi, rangtasvirda milliy o‘ziga xoslikni tadqiq etishga turtki bo‘ldi.

Mamlakatning markaziy Oliy ta’lim muassasalarida professional badiiy bilimga ega bo‘lgan O‘zbekiston rassomlari yangi ifodaviy vositalar ustida izlanish olib borishdi. An’anaviy mavzuga aylanib qolgan syujetlarni – inson va jamiyat, ijtimoiy o‘zgarishlar, kundalik turmush – rassomlar chuqur individual talqin etishga intildilar. Yangi g‘oyalar talqini o‘zgacha uslubiy tizimga muhtoj edi, bu esa mavjud yo‘nalishlarni qayta ko‘rib chiqish natijasida yangi plastik tendensiyalarning shakllanishiga olib keldi. Mazkur o‘zgarishlarda milliy rangtasvirda hal etuvchi keskin sakrashni aks ettiruvchi badiiy jarayonning dinamikasi ko‘rinadi.

O‘rganilayotgan davrda ijodiy konsepsiya, dunyoqarash va badiiy-uslubiy izlanishlari farqli bo‘lgan ijodini 1930-yillarda boshlagan katta avlod (N.Kashina, V.Ufimsev, O‘.Tansiqboyev, N.Karaxan va b.lar), o‘rta avlod (R.Axmedov, A.Abdullayev, M.Saidov, N.Qo‘ziboyev va b.lar) va yosh avlod (R.Choriyev, V.Burmakin, Ye.Melnikov va b.lar) ijodi badiiy jarayondagi turfa xillikka asos bo‘lgan. Ularning izlanishlarida 1920-1930-yillardagi tasviriy-plastik tajribalarga qaytish, xalq badiiy merosiga murojaat, milliy o‘ziga xoslik yo‘lidagi izlanishlar, G‘arb zamonaviy san’ati oqimlarini o‘zlashtirish kabi asosiy badiiy tendensiyalar mazkur davr O‘zbekiston rangtasvirida uslubiy rang-baranglikni hosil qilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O‘zbekiston rangtasvirida mavzu va janrlardagi yangilanish tendensiyalari”**ini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, dastlabki bo‘lim **“Portret va janrli rangtasvirdagi yangilanish tendensiyalari”** ko‘rib chiqilgan. Haqli ravishda portret janrini 1950-1960-yillarda O‘zbekiston rassomlari ijodida markaziy janrga aylanganini belgilab o‘tish mumkin. L.Jadova ta’kidlaganidek, milliy maktabning deyarli barcha vakillari o‘z yo‘llarini aynan portret janridan boshlaganlar, garchi keyinchalik boshqa mavzularga murojaat qilgan bo‘lsalar ham³⁵. Bu esa ular badiiy tilining shakllanishida portretning asosiy rol o‘ynaganligidan dalolat beradi. A.Umarov janrning o‘ziga xosligini tadqiq etib, bu davrda portret g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuklikka erishgani, rassomlar individual obrazni chuqur ifodalash uchun ifoda vositalaridan maqsadli

³⁵ Жадова Л.А. Современная живопись Узбекистана. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы, 1962. – С. 44.

foydalangani, bu esa mazkur janrning professional o'sish va milliy rangtasvirning mavzu doirasini kengaytirishning muhim ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlaydi³⁶.

Ijodiy kamolotga erishgan, XX asr boshidagi badiiy jarayonni boshdan kechirgan avlod vakillari uchun portret 1920-1930-yillar merosini qayta ko'rib chiqish, shuningdek, milliy o'ziga xoslikni ifodalashda yangi badiiy ifoda usullarini izlash bilan tavsiflanadi (V.Ufimsev "Ima Sumak portreti", "Gang", 1961; Z.Kovalevskaya «Haykaltarosh S.Rakova porterti», 1961).

Portret janri rivojini kuzatar ekanmiz Yevropa badiiy metodi va milliy an'analarning sintezi plener portretga yangiliklar olib kirdi. "Iliqlik" davri rassomlari dekorativ va hajmsizlik ifodasiga qiziqish bildirishardi, lekin portretga ko'pincha tashqi dekorativlik va plakatli shartlilikdan uzoqlashib, zamondoshlarining ichki dunyosini chuqurroq ifodalashga intildilar. Personajning individualligiga, uning psixologik holatiga tobora ko'proq e'tibor berila boshlandi. Rassomlar P.Benkovning impressionizm malakasini davom ettirib, o'zbek kishisi qiyofasini aynan tabiat makonida, yorug'likka to'yingan muhitda tasvirlashdi. R.Axmedovning plener portretlarida tabiat shunchaki fon emas, balki qahramonning ichki ruhiy holatini ochib beruvchi faol vositaga aylanadi. Rassomning portret janrida milliy xarakterni ifodalash uchun yangi imkoniyatlar ochilgan. Masalan, uning "Keksa kolxozchi portreti," "Ona o'ylari", "A.Umurzoqov portreti" da obrazlarning nozik psixologik holati ularning atrof-olam bilan uyg'unligi, koloristik yechim orqali ochib beriladi. Rassomning portretlari zamondoshlarining hayoti, his-tuyg'ulari va kechinmalari haqida o'ziga xos hikoyalarga aylanadi.

Tasvirlanuvchi ruhiyatini ifodalashga nisbatan murakkab o'tish va yangicha izlanishlar, portret janrining kompozitsion asoslari boyishini A.Abdullayevning shu yillardagi ijodi misolida kuzatish mumkin. Plener malakasi, ranglar xilma-xilligiga e'tibor o'tmishdagi tasviriy mezonlardan voz kechishga yordam berdi va "Buvi va nabira," "Shahlo" (1960), "M.Toshmatov portreti" (1964) kabi portretlarning yaratilishiga olib keldi. So'nggi ikki ishdagi dadil rang ziddiyatlari dekorativlik hosil qilmaydi, balki qahramonni hissiy-emotsional qabul qilishda o'ziga xos ta'sirchanlik bag'ishlaydi. V.Jmakin, V.Fadeyev, A.Viner va R.Viko asarlarida tashqi ko'rinish va tafsilotlarni aniq aks ettirishga intilish kuzatiladi, bu esa portretlarga hujjatli ifodalilik va chuqurlik baxsh etadi.

O'zbekiston rangtasvirida "qat'iy uslub" boshqa sovet mamlakatlari kabi keng rivojlanmagan. Uni ko'proq mahobatli shakl va tasviriy umumlashmalik kabi yangi ifodaviy shakllarni izlashdagi tendensiya sifatida belgilash mumkin. Mazkur badiiy paradigma doirasida "qat'iy uslub"ning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi alohida asarlar yaratildi, xususan bu jarayonni A.Viner ("Konchilar", 1960), V.Jmakin ("Shofyor portreti", 1964), V.Pravdyuk ("T.Kurbanov portreti", 1964; "Roziyaxon Nazirova portreti", 1968, BKD) ishlarida kuzatish mumkin. Mazmunan uni suronli muhitda mehnat qiluvchi neftchilar, quruvchilar, mexanizatorlarning mardonovor hayotini madh etgan "tantanavor" san'at deb sifatlash mumkin.

1960-yillarning ikkinchi yarmida san'atga kirib kelgan yosh rassomlarning portretlarida ham obrazning umumiyligi va mahobatlilikka intilish seziladi. Ular

³⁶ Умаров А.Р. Портретная живопись Узбекистана. – Т.: Фан, 1968. – С. 124.

ko'pincha portretlanuvchining ijtimoiy mavqeini yoki ichki dunyosini ta'kidlash uchun rang va detallar ramzidan foydalanadilar. R.Choriyev va V.Burmakinning portretlari postimpressionizm an'alariga tayangan o'ziga xos koloristik tajribalari bilan ajralib turadi. Rassomlar to'yingan palitra orqali qahramonning ruhiy holatini ifodalashga, asarning o'ziga xos muhitini yaratishga intilganlar.

1950-yillarning ikkinchi yarmidagi san'atning nisbatan erkin rivoji O'zbekiston rangtasvirida janrli kartina yoki maishiy janrning samarali shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Yangilangan realizmda avvalgi san'atning g'oyaviy targ'ibot-tashviqotga qaratilgan cheklovlaridan ozod bo'lishi jarayoni kuzatiladi. Bu esa rassomlarga o'zlari yashab turgan davr voqeligini yangicha idrok etish, kundalik hayotni chuqurroq talqin etishga murojaat qilish imkonini berdi.

Turli avlod vakillari uchun rangtasvirda yangilik tendensiyasi har xil namoyon bo'lgan. N.Kashina, Ch.Axmarov, R.Axmedov, R.Choriyev kabi rassomlar uchun milliy o'ziga xoslikni individual talqin etish yangicha tasviriy izlanishlar vositasi bo'lgan. Ular hayotni ko'r-ko'rona ko'chirish emas, balki o'zbek xalqining unikal xarakteri, uning an'analari, madaniyati va ruhiy olamini chuqur anglashga intilishgan. Izlanishlar ularni mavzu va syujet tanlashda, obraz yaratishda milliy o'ziga xoslikni ifodalashga olib keldi. Bu faylasuf va madaniyatshunos G.Gachevning "milliylik tashqi atributlarda emas, balki xalqning xarakteri va o'ziga xosligiga chuqur kirib borishda namoyon bo'ladi"³⁷ degan fikriga hamohang edi. N.Kashina dekorativizm tamoyillarini qo'llash orqali janrli kartinaning boyitishga muvaffaq bo'ladi. Bu "Do'ppicha" (1960), "Uchrashuv", "Oltin hosil" (1961), "Insoniyat bahori" (triptix, 1961) kartinalarida namoyon bo'ladi. Shakl aniqligi va realistik tasvirni saqlagan holda, lokal ranglar, hajmsizlik orqali dekorativ mahobatli obrazlar yaratadi, yumushlari bilan band qahramonlar, manzara va ayniqsa detallarda shartli ifodaviylikni kuchaytiradi.

Mazkur bobning ikkinchi bo'limi "**Manzara janridagi an'alar va vorisiylik**"ga bag'ishlangan. O'.Tansiqboyev, N.Karaxan, N.Kashina, R.Timurov, Yu.Yelizarov, F.Toxirov, D.Imomovning ijodiy malakasi milliy rangtasvirni yanada boyitib, manzarada peyzaj-kartina rivojlanishiga sabab bo'lgan. Ularning ijodida dekorativlik tamoyili asosida koloritga hissiy yuklama berish birlamchi bo'lib, har birida o'zgacha uslubiy talqinda hal bo'lgan. Bu borada N.Karaxanning kolorit topilmalari va umumlashma shakllari hayratlanarli darajada esda qolarlidir. Uning asarlaridagi peyzaj ramziy ma'no kasb etib, nafaqat tabiat in'ikosi, balki ruhiy holat ifodasiga ham aylanadi. N.Qo'ziboyev, V.Zelikov esa realistik maktab yo'lidan borib, klassik meros va zamonaviy badiiy izlanishlar o'rtasidagi bog'liqlikni saqlab qolgan peyzajning keng ifoda imkoniyatlarini namoyish etdilar.

1950-1960-yillarda O'.Tansiqboyev, N.Karaxan ijodida realizmga tayangan va zamonaviy ruhiyat yo'g'rilgan lirik, epik va tematik manzaralar rivojlanadi. Bu asarlar shunchaki tabiat tasviri emas, balki zamonaviy estetik va dunyoqarashlarini aks ettiruvchi atrof-olamni badiiy idrok etish usulidir. O'rol Tansiqboyev manzara janrini plener-etyud chegarasidan olib chiqib, sof manzara-kartinalarni yaratish bosqichiga ko'tardi. Uning keng ko'lamlilik lirik peyzajlari inson va tabiat uyg'unligi,

³⁷ Гачев Г. Национальные образы мира. – М.: Советский писатель, 1988. –С. 159.

abadiyat haqidagi chuqur shaxsiy fikrlar bilan bog'liq edi. 1960-yillarda O'.Tansiqboyev ijodidagi asosiy o'zgarishlar bu vertikal kompozitsiyalarning qaytishi ("Qizil tog'", 1960; "Qizil qumda", 1964; "Bahor", 1967; "Morguzordagi ko'l", 1969 va b.lar), tabiatning turfa holatlarini, xususan tun manzaralarini nozik shoironalik bilan ifodalab, ba'zan mayin lirik kayfiyat, ba'zan jiddiy va ulug'vor go'zallik yoki hayotbaxsh quvvatga to'la peyzaj kartinalar yartishi bilan belgilanadi.

Aytish joizki, ko'pgina rassomlar manzara janriga badiiy ifodaning eng erkin shakli sifatida murojaat qilishgan, bu esa eksperimental koloristik yechimlar va kompozitsion izlanishlar uchun imkoniyatlar yaratgan edi. Manzara janri sotsialistik realizmning oldingi bosqichiga xos bo'lgan qat'iy mafkuraviy chegaralardan holi bo'la olar edi. Shu sababli, rassomlar uchun ushbu janr dunyoni individual idrok etishni ifodalash mumkin bo'lgan ijodiy erkinlik makoniga aylanadi.

Uchinchi bob "**O'zbekiston rangtasvirida an'analar va novatorlik**" deb nomlanib, birinchi bo'lim "**O'zbekiston rangtasvirida milliy o'ziga xoslik muammosi**"ni o'rganishga qaratilgan. Siyosiy-madaniy hayotdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan erkinlik san'atda milliy o'zlikni anglashga bo'lgan intilishni kuchaytirdi. Madaniy merosning unikalligini ifodalashni maqsad qilgan rassomlar uchun milliy o'ziga xoslik muammosi dolzarflik kasb etishni boshladi. "An'ana va novatorlik" mavzusi bu davr badiiy tanqidchiligi va ijodiy amaliyotida yetakchi mavzuga aylandi.

Katta avlod vakillari asosiy ijod manbaini Sharq an'analari, urf-odatlar va asrlar davomida shakllangan o'ziga xos falsafasidan qidirganlar. Bu manbalar ularning badiiy tizimiga asos bo'lgan, mavzu va ifoda vositalarini oziqlantirgan.

XX asr boshlaridayoq A.Volkov, A.Nikolayev (Usto Mo'min), O.Tatevosyan, N.Kashina, N.Karaxan va O'.Tansiqboyev asarlarida O'rta Osiyo xalqlari madaniy merosini qayta ko'rib chiqishga asoslangan asosiy uslubiy ko'rsatkichlar shakllangan edi. Ular birinchilardan bo'lib Yevropa modernizmi asosida Sharq miniatyurasi, amaliy bezak san'ati, Sharq falsafasi elementlarini tasviriy san'atga faol olib kira boshladilar. Shu bilan birga, har bir rassomda meros masalasi individual ravishda, o'z ijodiy yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq holda yechim berilgan. Bunday yondashuv keyingi avlod rassomlarining izlanishlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

San'atda yangilanishga bo'lgan intilish tobora yaqqol ko'rina boshlaydi. Hayotiylik va bezakdorlik ibtidosiga ega xalq ijodi mazkur yillar jamiyatining kayfiyatiga ohangdor edi. Aynan ular rangtasvirdagi tasviriy-ifodaviy tizimning yangilanishida o'ziga xos "energetik quvvat" sifatida xizmat qildi. "O'tgan yillar mobaynida XIX asr realizmining statik konsepsiyasi asosida rivojlangan milliy rangtasvirga aynan an'analar orqali innovatsiya chizgilarini kiritish mumkin, deb umid qilishgan"³⁸. Shunday qilib, an'ana tormoz emas, balki badiiy tilning yangilanishi uchun katalizator bo'lib, O'zbekiston rangtasvirida milliy o'ziga xoslikning yangi, yanada yaxlit va chuqur tushunchasini shakllantirishga yordam beradi.

³⁸ Ахмедова Н. Чингиз Ахмаров (1912-1995) / Сводный каталог. Общ. Редакция И.Галеев. – Москва: 2010. – С. 26.

O‘zbekiston rangtasvirida milliy o‘ziga xoslik masalasining aktuallashtiruvini Ch.Axmarov, R.Axmedov, R.Choriyev kabi turli avlod vakillari ijodi orqali ko‘rib chiqish mumkin. Ular milliy merosning turli qatlamlariga murojaat etib, bugungi kunda namuna manbasiga aylangan usullar va dinamikani yaratishgan. Masalan, Chingiz Axmarovning rangtasvir tizimi Sharq me‘morchiligi, bezagi va miniatyurasi estetikasini chuqur tushunishga tayangan. Rassom milliy o‘ziga xoslikni ochib berish yo‘lidagi izlanishlarida Usto Mo‘mindan so‘ng Sharq estetikasi bilan bog‘liq mumtoz poeziya, miniatyuraning ifodaviyligi va realizm tamoyillarini uyg‘unlashtiruvchi yo‘lni davom ettirdi.

R.Axmedov xalq san‘ati koloriti, uning emotsional to‘yinganligidan ilhomlanib, zamondoshlari obrazlarida ichki quvvat va mazmundorlikni uyg‘unlashtirishga intilgan. R.Choriyev o‘zining portret va janrli kompozitsiyalarida jonajon Surxondaryoning madaniy o‘ziga xosligini dekorativ uslub va milliy poetika sintezi orqali ifodalashga uringan. Milliy o‘ziga xoslik muammosi yechimiga yondashuvlarda nafaqat rassomlarning yorqin individualligi, balki ularning zamonaviy tarixiy kontekst bilan chuqur aloqasi namoyon bo‘ladi.

Rangtasvirida milliylikni ochib berish nafaqat o‘tmish va vorisiylikka tayangan, balki ichki etnomadaniy an‘analar va XX asr Yevropa madaniyatining tashqi ta‘siri nuqtai nazaridan chuqurlashib borgan. Ushbu murakkab o‘zaro aloqadorlik individualizmga qaratilgan badiiy izlanishlar uchun ko‘p qatlamli maydonni tashkil etgan. Xususan, R.Axmedov (“Surxondaryolik ayol”; “Qashqadaryolik ayol”, 1959; “Qo‘shiq”, 1964) va Ro‘zi Choriyev (“Kelin”, 1967; “Pishgan anor”, 1968; “Surxondaryo madonnasi”, 1969) dekorativ ifoda usullariga urg‘u bergan holda obrazni mahobatlashtirish, lokal ranglar majmui orqali an‘ana masalasini xalq etishgan. Ularning ijodida nafaqat milliy o‘ziga xoslik yo‘lidagi izlanishlarni, balki fransuz postimpressionizmning badiiy ifoda usullariga murojaatni ham ko‘rish mumkin.

Rassomlar milliy identiklik masalasida keng tarixiy-madaniy mavzularga qo‘l urishgan. U yoki bu ijodkorning individualligi xalqning madaniy rivoji qatlamlari, uning ma‘naviy yutuqlarini ochib beruvchi obrazlar olamidani iborat murakkab tizimini hosil qilgan. O‘zbekiston dastgohli rangtasviri qaytadan ochilayotgan boy merosdan ilhomlanib o‘zining falsafiy ma‘nosini kasb etayotgan edi. Bu davr rangtasvirida milliy o‘ziga xoslik muammosini o‘rganish doirasida shuni ta‘kidlash kerakki, "milliy uslublar" realistik badiiy tizim oqimida namoyon bo‘lgan. Shu bilan birga, etnomadaniy motivlar va an‘analarga boy bo‘lgan asarlarda realizm usullarining transformatsiyasini kuzatish mumkin. Ularning ijodi milliy o‘ziga xoslikni rang-barang badiiy yondashuv, uslublar va ijro texnikasi orqali ifodalashga intilishidan dalolat beradi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“G‘arb modernizmini o‘zlashtirish tajribalari”** masalalariga bag‘ishlangan. **“Stalin davridan keyingi san‘at reabilitatsiyasi”**³⁹

³⁹ Томсон О. Полифонизм советской культуры 60-х годов XX века (Творчество В. Иванова, Э. Неизвестного, П. Никонова) / Советское искусство на переломе: от 1960-х к 1980-м. К 60-летию выставки «30 лет МОСХ» в московском «Манеже» // Коллект. монография по мат-лам научной конференции. 2–3 июня 2022 г. РАХ, Москва / Науч. рук. Д.О. Швидковский, науч. ред. Е.О. Романова. – Москва: Российская академия художеств, 2022. – С. 96.

sifatida ta'riflangan tarixiy-madaniy davr 1920-1930-yillardagi plastik izlanishlarni qayta aktuallashtirdi. Milliy an'analar talqini va Yevropa modernizmi malakasini ifodalash yo'lida san'at vazifalarini anglash va tasviriy ifoda usulini izlashda erkinlik paydo bo'ldi. Bunga bir nechta tarixiy voqealarni sabab sifatida ko'rsatish mumkin. Birinchidan, XX asr boshidagi Pablo Pikassodan to Mark Rotkoga qadar modernizm namoyondalarining ijodi omma tomonidan iliq qabul qilindi. Ikkinchidan, modernistlar va avangardistlarning badiiy merosi, 1962-yil Manejdagi ko'rgazmadagi qat'iy tanqidga uchrashidan oldin, rangtasvirga yangi mohiyat beruvchi mazmun sifatida qisqa, ammo tez fursatda yoshlar tomonidan qayta anglandi, aktuallashti. Jahon va umumittifoq ko'rgazmalari, san'at haqidagi yangi jurnallar, sotsialistik respublikalar orasidagi madaniy muloqot tabiiyki o'z hosilini berdi. 1966-yilda Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyining tashkil etilishi, so'ng I.V.Savitskiy tomonidan 1920-1930-yillardagi tasviriy-ifodaviy tajribalarga boy davrga oid kolleksiyaning komplektatsiya jarayoni A.Volkov, A.Nikolayev (Usto Mo'min), V.Ufimsev, V.Rojdestvenskiy, M.Kurzin, Ye.Karavay, N.Kashina, N.Karaxan va O'.Tansiqboyevlarning ilk ijodiy izlanishlariga qiziqishni uyg'otdi.

Yuqoridagi tarixiy-madaniy voqelar fonida O'.Tansiqboyev, N.Kashina, N.Karaxan, V.Ufimsev kabi katta avlod vakillari iliqlik shabadalarini tezda ilg'ab, 1940-1950-yillarga oid ijodining ayrim jihatlarini yengib o'tishga intildilar. Ular o'zlarining dastlabki novatorlik intilishlarini yangi imkoniyatlar bilan birlashtirib, milliy san'atni G'arb badiiy oqimlari bilan muloqotda rivojlantirishni davom ettirib, o'zbek rangtasvirining sifat jihatidan yangi professional darajaga ko'tarilishiga hissa qo'shdilar.

Badiiy ifoda usulini izlashda ular sayyor rassomlar merosiga emas, balki g'arb ekspressionizmiga, uning dinamikligi, o'tkir ifodaviyligiga murojaat etishgan. Zamonasining bunyodkorlik ruhiyatini, hayotning haqqoniy tahlilini berish uchun ularga baland, ravon ovoz, lakonik va ekspressiv badiiy zabon kerak edi, shu sababli ular kartinalarda grafika, plakat va freska usullaridan foydalanishdan cho'chishmagan. Shu sababli, milliy rangtasvirda rassomlarning ijodida uslubiy umumiylik kasb etmagan. R.Choriyev, G.Ulko, Yu.Taldikin, V.Burmakin, Ye.Melnikov, G.Chernuxin – bu rassomlar ijodi turfa xildir. Ular jaddalik bilan zamonaviy badiiy usullarni o'zlashtirib, hayotga shaxsiy munosabatlarini ifodalashga intilishdi. Barcha narsa siyosat bilan aniqlanuvchi jamiyat san'atida ularning ijodida individual o'ziga xoslikni aks ettiruvchi obrazlar paydo bo'lishni boshladi.

Rangtasvirda sekin-asta kartinaning qiymati uning mavzusi bilan emas, balki shakliga bog'liqligi belgilanishi kompozitsiyaning asosiy elementlari rang, chiziq va teksturaning o'zaro uyg'unligi masalasini birlamchi qo'yilishiga olib keldi. Shakliy ifoda masalasi rassomlarning butun bir avlodi badiiy izlanishlarining markaziga aylandi. Masalan, ekspressionizm usullarining o'ziga xos talqinini R.Choriyev portretlarida, kubizm va abstraksionizmning V.Burmakin va Ye.Melnikov tajribalarida kuzatish mumkin. Bunga 1960-yillardan dadil ijodiy tajribalar bilan kirib kelgan Yevgeniy Melnikov ijodini misol qilish mumkin. Uning ijodi murakkab kompozitsiya yechimlari, tasviriy ifodaviyligi va ichki quvvati bilan mutaxassislar

e'tiborini jalb etadi. O'zbekiston davlat san'at muzeyidagi "Uloq" (1969) kartinasi o'zining haybati, dinamik ruhiyati va shakllar ifodaviyligi bilan istalgan tomoshabinni bir muddat oldida to'xtashga majbur qiladi. "Rassom Qo'chqor Nosirov" (1962) portretida ekspressionizmga xos ilk tajribalarni ko'rish mumkin. Rassomning cho'zinchoq yuzi matoni to'liq egallaydi va orqa tomondan boshning qop-qora soyasi namoyon bo'ladi. Ye.Melnikov do'sti portretini qalin va uzun bo'yoq surtmalari bilan yasaydi, uning katta-katta ochilgan ko'zlari tomoshabin nigohini ushlab qoladi. "Paganini" (1963) kartinasida musiqachining badiiy ruhiyati ekspressionizmning tasviriy vositalari orqali ifodalangan. Rassom ijodiy tajribalar qilishdan cho'chimagan. Uning "Avtoportret. Harorat 39,9" (1963) ishida syurrealistik abstraksiya, "Bioritmlar" (1967) ishida esa to'laqonli abstraksiyani kuzatish mumkin. "Divanda" (1971) rangtasvirida esa fovizm estetikasiga xos ranglar erkinligi va shakl deformatsiyasi aks etgan.

Ye.Melnikov bilan parallel ravishda modernizm ruhidagi tasviriy va dekorativ izlanishlar samarqandlik rassom Grigoriy Ulko ijodida o'z ifodasini topgan. Uning «Usto Xazratqulov portreti» (1961) «Panjikent devoriy surati» (1961), «Usto Jo'raqulov portreti» (1965), «Birinchi qatorda», «Suv» kabi yorqin bo'yoqlar, original kompozitsion yechimi bilan sara asarlari qatoridan o'rin olgan. Uning ishlari dekorativ rangtasvirga xos eksperssiv shakllar, ifoda uslubining obrazli tuzilishi bilan ajralib turadi. G.Ulko dekorativ rangtasvirga yaqin bo'lgan obrazli uyg'unlikka intildi, bunda shakl va rang nafaqat tasvir vositasiga, balki hissiy va falsafiy mazmunning tashuvchisiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, an'analar asosida milliy o'ziga xoslik masalalarini dolzarblashuvi va modernizm tajribasiga murojaat novatorlik bo'lib, O'zbekiston rangtasviri rivojiga yorqin o'ziga xoslik bag'ishladi, milliy badiiy maktabning yanada o'sishi uchun mavjud imkoniyatlarni namoyon etdi.

XULOSA

"1950-yillar ikkinchi yarmi – 1960-yillar O'zbekiston rangtasviridagi asosiy tendensiyalar" mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'zbekiston rangtasvirida muhim o'zgarishlar 1950-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu o'zgarishlarga quyidagi asosiy tarixiy-madaniy voqealar o'z ta'sirini ko'rsatganini alohida qayd etish zarur:

- I.V.Stalin shaxsiga sig'inishning qoralanishi va totalitar mafkuraviy modelning asta-sekin barham topishi, jumladan, "temir parda"ning qisman "ochilishi" badiiy muhitga ijodiy erkinlik g'oyalari kirib kelishiga sabab bo'ldi. Sotsialistik realizm meyoriy talablarining zaiflashuvi, to'liq bo'lmasa-da, bekor qilinishi rassomlarga yangi mavzularga murojaat qilish imkoniyatini ochib berdi va shu bilan tasviriy san'atda demokratizatsiya jarayonlarining boshlanishini belgilab berdi;

- yangi badiiy idrokning shakllanishiga xalqaro madaniy tadbirlar sezilarli ta'sir ko'rsatgan: Moskvadagi Yoshlar va talabalarning VI xalqaro festivali (1957),

Sotsialistik mamlakatlar san'ati ko'rgazmasi (1958), Amerika milliy ko'rgazmasi (1959), Fransuz milliy ko'rgazmasi (1961) zamonaviy san'at haqidagi vizual va konseptual tushunchalar doirasini kengaytirgan;

- O'zbekistonda badiiy hayotning faollashuvi yangi ko'rgazma shakllarini joriy etishga urinishlarda namoyon bo'ldi. 1961-1962-yillarda Toshkentda "Hakamlar hay'atsiz" ko'rgazmalarining o'tkazilishi (ko'rgazma qo'mitalarisiz) yangi avlod vakillariga o'z izlanishlarini ko'rsatish, erkin munozaralar olib borish imkoniyatini berdi, bu esa ijodiy tajribalarga turtki bo'ldi. Ushbu davrning muhim badiiy tendensiyalarini tahlil qilish "iliqlik" san'atining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash, shuningdek, ularni ushbu bosqichning tarixiy-madaniy jarayonlari kontekstida tizimlashtirish imkonini beradi;

- badiiy hayotning faollashuvi, butunittifoq yirik ko'rgazmalarini tashkil etilishi rassomlarni yangicha yechimlar ustida izlanishlar olib borishlariga turtki berdi. Xorijiy mamlakatlar bo'ylab kasbiy va madaniy sayohatlar milliy rangtasvirda mavzular doirasining boyishiga sabab bo'ldi. Bu esa o'rganilayotgan davrdagi badiiy jarayonda uslubiy rang-baranglikni hosil qilgan muhim omillardan biriga aylandi;

- hisobot ko'rgazmalar va ilmiy anjumanlarda milliy maktablarga e'tibor qaratilishi, milliy o'ziga xoslik masalasining ko'tarilishi rangtasvirda yangi izlanishlarga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishlar milliy maktab yuzaga kelib, rivojlanishining muqaddimasi bo'lib xizmat qilgan.

2. 1950-yillar ikkinchi yarmi – 1960-yillarda professional badiiy ta'limga ega bo'lgan O'zbekiston rassomlari yangi ifodaviylik vositalarini izlashdi. An'anaviy mavzuga aylanib qolgan syujetlar – inson va jamiyat, ijtimoiy o'zgarishlar, kundalik turmush lavhalari rassomlar tomonidan individual talqin etildi. Yangi g'oyalar ifodasi yangi uslubiy tizimga muhtoj edi, bu esa mavjud yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqish natijasida yangi tasviriy konsepsiyalar va uslubiy tendensiyalarning shakllanishiga olib keldi. Aynan mazkur o'zgarishlarda milliy rangtasvirda hal etuvchi keskin sakrashni aks ettiruvchi badiiy jarayonning dinamikasi ko'rinadi.

3. O'rganilayotgan davrda respublika san'ati uch avlod rassomlari: katta (N.Kashina, V.Ufimsev, O'.Tansiqboyev, N.Karaxan va boshqalar), o'rta (Ch.Axmarov, A.Abdullayev, R.Axmedov, N.Qo'ziboyev, M.Saidov) va yosh (R.Choriyev, V.Burmakin, Ye.Melnikova, B.Boboyev, F.Taxirov, D.Imomov va boshqalar) faoliyati bilan ifodalangan ko'p darajali badiiy tuzilmani taqdim etdi. Ularning asarlarida 1920-1930-yillardagi tasviriy-plastik tajribalarga qaytish, xalq badiiy merosiga murojaat, milliy o'ziga xoslik yo'lidagi izlanishlar, G'arb zamonaviy san'ati oqimlarini o'zlashtirish kabi asosiy badiiy tendensiyalar mazkur davr O'zbekiston rangtasvirida uslubiy rang-baranglikni hosil qilgan.

4. 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar rangtasvirida mavzu, syujet va tasviriy-plastik talqinda quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lgan:

- hikoyanavislikka moyil bo'lmagan, obrazlarning emotsional-psixologik ifodaviylikka qaratilgan umumlashgan ifoda shakllari paydo bo'ldi;

- kartinaning emotsional yechimi, muallifning mavzu talqinidagi shaxsiy pozitsiyasi, qahramonlarning psixologik xarakteristikasi birinchi planga chiqqan;

- avvalgi davr rangtasviri uchun noodatiy bo‘lgan mavzular paydo bo‘lgan – oila hayotidagi an’analar, xalq ustalari, milliy bayramlar (askiya, uloq). Millat xarakteriga xos syujet-mavzular qatori kengaygan, xalqning an’anaviy tasavvurlari va mentalitetining o‘ziga xosligidan kelib chiqib zamonaviy hayotni idrok qilish rassomlarning o‘z oldiga qo‘ygan eng asosiy masalalardan biriga aylangan:

- tarixiy-inqilobiy va ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq mavzularni yangi shaklda talqin etish boshlandi. Rassomlar nafaqat tarixiy voqealarni qayd etishga, balki ularni falsafiy anglashga, kompozitsiyalarni assotsiativ va majoziy mazmun bilan to‘yintirishga intilishgan. Bu esa asta-sekinlik bilan jamoaviy-g‘oyaviy narrativdan individual-obrazli tafakkurga, o‘z badiiy tilini izlashga o‘tilayotganligidan dalolat beradi;

- avvalgi davrda belgilangan dasturiy syujetli-mavzuli dominantalarning rangtasviriga salbiy ta’siri aniqlanib, uning hissiy-emotsional, badiiy-tasviriy yuklamalarining individual talqini dastlab portret janrida, so‘ng janrli kartinalarda namoyon bo‘lgani belgilandi;

- katta avlod vakillari ijodida shakllar ifodaviyligi va dekorativligi foydasiga sotsrealizm tamoyillaridan ozod bo‘lishga intilish jarayonlari kuzatilsa, yosh rassomlar san’at asarining mavzudan holi qiymatini tiklash, badiiy ifodaviylikda o‘zgacha vositalar ustida izlanish olib borishgan. Bularning barchasi 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillar badiiy jarayonida ziddiyatli va rang-barang tendensiyalar kechganligidan darak beradi.

5. O‘.Tansiqboyev, N.Karaxan, V.Ufimsev, N.Kashina, Z.Kovalevskaya ijodida 1920-1930-yillardagi izlanishlar rehabilitatsiyasi sodir bo‘ldi va bu uslubiy izlanishlar yangi avlod uchun dastur vazifani o‘tadi. "Iliqlik" davrining nisbatan ijodiy erkinligi sharoitida rassomlar 1940-1950-yillar rasmiy estetikasi tomonidan o‘rnatilgan dogmatik ko‘rsatmalarni yengib o‘tishga intilib, o‘zlarining dastlabki davriga xos bo‘lgan plastik ifodaviylikni tiklashga intildilar.

6. 1950-yillari ikkinchi yarmi – 1960-yillar o‘zbek rangtasviriga xos bo‘lgan yangilanish tendensiyalari orasida portret janridagi yangiliklar alohida ahamiyat kasb etdi. Oddiy mehnatkash obrazi, xalq obrazlari insonning atrof-olam bilan uyg‘unligini ifodalagan badiiy g‘oyalarning majmuida etnomadaniy an’analar yotgan. R.Axmedov, R.Chariyev, B.Boboyev va boshqa rassomlarda portret janridagi yangilanish xalq san’atining koloristik, ritmik va dekorativ tamoyillari asosida sodir bo‘lib, zamondoshni psixologik tavsiflash vazifalariga kiritilgan barcha yangi tendensiyalarning negizida turgan.

7. Peyzaj qat’iy mafkuraviy chegaralarni chetlab o‘tib, dunyoni individual idrok etishni ifodalash mumkin bo‘lgan ijodiy erkinlik makoniga aylanadi. N.Karaxan, V.Jmakin, G.Shpolyanskiy, R.Choriyevning industrial manzaralari qatorida, peyzaj kartina, lirik manzaralar paydo bo‘ldi. N.Kashina, O‘.Tansiqboyev, Yu.Yelizarov, R.Timurov, N.Qo‘ziboyev, V.Zelikov, F.Toxirov, D.Imomov manzarani nafaqat naturani qayd etish vositasi, balki individual koloristik va kompozitsion tajriba uchun makon sifatida ham qo‘llaganlar. Manzara janri doirasida Yevropa modernizmi an’analari, impressionizm va postimpressionizm unsurlari zamonaviy hayot estetikasi bilan yangicha uyg‘unlashuvi shakllanadi.

9. 1960-yillarda R.Axmedov, R.Choriyev, B.Boboyev, Ye.Melnikov, Yu.Taldikin va boshqalar ijodida modernizm usullarini milliy an'analar va folklor motivlari bilan sintez qilishga intilish kuzatildi, bu milliy maktabning o'ziga xosligini tasdiqlash bilan bog'liq edi. Xalqning madaniy merosiga murojaat qilish tendensiyasi Ch.Axmarov ijodida yaqqol namoyon bo'lgan. Uning rangtasvir tizimi G'arb va Sharq an'alarining keng doirasiga, Sharq miniatyurasi estetikasiga, Sharq mumtoz adabiyotiga tayangan.

10. Avlodlar almashinuvi fonida badiiy hayotga kirib kelgan va mafkuraviy dogmatikaning qattiq ta'siriga tushmagan yosh rassomlar ijodiy tajribaga yo'nalish olish va yangi estetik ko'rsatmalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ldilar. R.Choriyev, Yu.Taldikin, Ye.Melnikov, G.Ulko, V.Burmakin kabi yangi avlod rassomlari asarlarida postimpressionizm, ekspressionizm elementlari, shuningdek, abstrakt san'atga yaqin tasviriy-ifodaviy tajribalar kuzatiladi.

11. Respublika san'ati taraqqiyotining keyingi bosqichi namoyandalari yuqorida ta'kidlangan rassomlarning ko'plab yutuqlarini o'zlashtirib, qayta idrok etib, amaliyotga tatbiq eta oldilar. Shunday qilib, 1960-yillardan boshlangan an'analar va yangicha yondashuvlar XX asrning 70-80 yillar rangtasviridagi ilg'or badiiy jarayonlarga asos bo'ldi.

Dissertatsiyaning nazariy xulosalaridan kelib chiqib, O'zbekiston rangtasvirini tadqiq etish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi quyidagi tavsiyalar taqdim etildi:

1. Tadqiq etilayotgan davr rassomlariga bag'ishlangan ko'plab retrospektiv ko'rgazmalar natijalaridan foydalanib, zamonaviy ilmiy yondashuvlar, hujjatlar va arxiv materiallari asosida ilmiy ishlar nashr etish tavsiya etiladi.

2. Badiiy asar – bu davr haqidagi ma'lumotlarni tashuvchisidir va uni anglashda rassom yashagan davr tuzilmasini anglash muhimdir. Shu sababli, XX asr O'zbekiston tarixini badiiy jarayondagi asosiy o'zgarishlar kesimida anglash uchun tarixiy, falsafiy va madaniyatshunoslik yondashuvida tadqiqotlar dolzarb sanaladi. Bunday tadqiqotlar XX asr O'zbekiston tarixini badiiy jarayonning asosiy o'zgarishlari kesimida har tomonlama anglash uchun muhim manba hisoblanadi.

3. Muzey kolleksiyalarida saqlanayotgan ko'plab asarlarning yaratilgan yillari belgilanmagan va bu rassom ijodiga oid bosqichlarni o'rganishda katta muammolar keltirib chiqarmoqda. Shu jihatdan, muzeylar o'z kolleksiyalarini ilmiy o'rganishni kuchaytirishi, davriga oid atributsiyalarga aniqlik kiritish bo'yicha tizimli ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Bu xronologik bosqichlarni aniqroq tiklash, badiiy yo'nalishlarning rivojlanishini kuzatish va rassomlarning individual ijodiy strategiyalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

4. Mazkur davr rassomlariga bag'ishlangan tematik ko'rgazmalar tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kabi ekspozitsiyalar nafaqat milliy san'atni ommalashtirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi, balki XX asr badiiy merosini tahlil va talqin qilish uchun ilmiy platformaga aylanadi. Ko'rgazma faoliyatiga tematik yondashuv asarlarni ma'lum bir davr, estetik tendensiya yoki badiiy maktab kontekstida ko'rib chiqish imkonini beradi, bu esa ularning madaniy va badiiy qiymatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019. San. 51.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ИСКУССТВОВЕДЕНИЯ
АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ИНСТИТУТ ИСКУССТВОВЕДЕНИЯ
АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

КУЛЬТАШЕВ БАХРОМ ТЕЛЬМАНОВИЧ

**ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА ВТОРОЙ
ПОЛОВИНЫ 1950-Х – 1960-Х ГОДОВ**

17.00.04 – Изобразительное и декоративно-прикладное искусство

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ИСКУССТВОВЕДЕНИЮ

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по искусствоведению зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.4. PhD/San209.

Диссертация выполнена в Институте искусствознания АН РУз.

Автореферат диссертации представлен на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме) и размещён на веб-странице Научного совета (www.fineartins.uz) и информационно-образовательного портала (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Ахмедова Нигора Рахимовна**
доктор искусствоведения, профессор, академик
Академии художеств Узбекистана

Официальные оппоненты: **Зияев Абдуманноп Абдурахимович**
доктор архитектуры, профессор

Рахимова Зухра Ибрагимовна
кандидат искусствоведения, профессор

Ведущая организация: **Государственный институт искусств и культуры Узбекистана**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc -02/30.12.2019.San51.01 при Институте искусствознания по адресу: 100029, г.Ташкент, пл. Мустакиллик, 2. Тел.: (99871) 23994667, факс: (998971) 2391771, e-mail: siti1928@mail.ru.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института искусствознания (зарегистрирована за № ____): Адрес: 100029, г.Ташкент, пл. Мустакиллик, 2. Тел.: (99871) 23994667, факс: (998971) 2391771, e-mail: siti1928@mail.ru.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(реестр протокола № ____ от _____ 2025 года)

А.А.Хакимов,
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор искусствознания, профессор, академик Академии наук Республики Узбекистан, академик Академии художеств Узбекистана

А.Х.Исмоилов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по искусствоведению

И.А.Мухтаров
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор искусствознания, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание научной степени доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В начале XXI века идеи глобализации и деколонизации существенно изменили подходы к изучению истории и теории искусства, в особенности искусства XX века. Современная практика всё чаще отказывается от прежних идеологизированных и иерархических подходов к изучению искусства, смещая акценты в сторону исследования локальных, ранее маргинальных художественных явлений. Национальные художественные школы, сформировавшиеся в диалоге с разнообразными мировыми тенденциями, но при этом сохранившие свою самобытность и культурную специфику, становятся предметом всё более пристального внимания со стороны научного сообщества. Это способствует переосмыслению вклада локальных художественных феноменов в формирование многогранного и полифоничного пространства мировой художественной культуры.

В современном мировом искусствознании всё чаще поднимаются вопросы переосмысления истории советского искусства, которое ранее в основном рассматривалось сквозь призму идеологии и цензуры. Сегодня в его изучении активно применяются междисциплинарные и постколониальные подходы, особое внимание уделяется вопросам формирования и развития культурной политики, становления национальных художественных школ, освоения модернизма, а также комплексному анализу творческого наследия художников. Активизация интереса к национальным школам позволяет более точно проследить эволюцию художественных процессов XX века, переосмыслить их особенности в условиях идеологического давления и внутренней модернизации. Возникает необходимость изучения развития национальных художественных традиций во взаимосвязи с мировыми художественными процессами, а также анализа трансформации жанров в контексте историко-культурных изменений.

Изучение тенденций живописи Узбекистана второй половины 1950-х – 1960-х годов, получивших название «оттепель» и ставших основой будущего подъёма национального искусства, позволяет глубже понять механизмы проникновения и адаптации европейских художественных форм в условиях идеологических ограничений. Это также способствует раскрытию процессов формирования национальной художественной самобытности и взаимодействия местных традиций с глобальными культурными процессами. В этом контексте всё большее значение приобретает осмысление новаторства тем, образов, жанров и индивидуального художественного языка в связи с социокультурными трансформациями эпохи. Справедливо отмечено, что "каждое суверенное государство имеет свою уникальную историю и культуру. Истинным творцом, создателем этой истории, этой культуры по праву

является народ этой страны" ⁴⁰ . Обновление научных подходов в искусствоведении Узбекистана с новых идеологических и эстетических позиций, переосмысление устоявшихся научных парадигм в свете современных методологических ориентиров, включая постколониальный и деколониальный дискурс, а также междисциплинарных исследований становится неотложной задачей современного искусствознания.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы," Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-3219 от 16 августа 2017 года "О дополнительных мерах по развитию и дальнейшему совершенствованию деятельности Академии художеств Узбекистана," ПП-4688 от 21 апреля 2020 года "О мерах по дальнейшему повышению эффективности сферы изобразительного и прикладного искусства," ПП-36 от 9 декабря 2021 года "О дальнейшем совершенствовании системы поддержки развития культуры и искусства," Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 8 от 8 января 2021 года "О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности и укреплению материально-технической базы Национального института художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзада," а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. "Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства".

Степень изученности проблемы. При рассмотрении художественного процесса второй половины 1950-х -1960-х годов как самостоятельного этапа развития, наряду с научными трудами, посвященными национальной живописи, имеют большое значение общие труды и опыт художественной критики этого периода. К числу первых серьезных публикаций, отразивших различные критические подходы к формированию живописи Узбекистана, относятся работы В.Чепелева, Б.Веймарна, М.Колина, а также коллективная монография «Изобразительное искусство Узбекистана (Очерк истории живописи, графики, скульптуры)» ⁴¹ . Информация, содержащаяся в этих

⁴⁰ Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. – Б.7.

⁴¹ Чепелев В.Н. Искусство Советского Узбекистана. – Ленинград: Изд-во Ленингр. обл. союза сов. худ., 1935. – 127 с; Колин Н. Изобразительное искусство Узбекской республики. – М.-Л.: Искусство, 1937. 47с. с ил.; Веймарн Б. В. Искусство Средней Азии. — Москва; Ленинград: Государственное издательство «Искусство», 1940. — 192 с; Изобразительное искусство Советского Узбекистана: (очерки истории живописи, графики, скульптуры) / Н. М. Абрамова, В. Н. Кедрин, С. М. Круковская и др. - Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1957. - 480 с.

источниках, в духе времени основана на идеологически обусловленных оценках, что позволяет проследить влияние официальных представлений на научный подход. Однако в сборнике очерков авторы так же подчёркивают изменения в восприятии реалистической традиции: на смену парадным и официальным образам приходят более глубокие и психологически выразительные портреты, отражающие внутренний мир личности.

С 1960-х годов в условиях относительной творческой свободы, характерной для периода «оттепели», начинают проявляться критические взгляды на текущие и прошлые процессы в республике. Так, в своей монографии Л.Жадова подвергает критике устоявшиеся предвоенные взгляды и выступает за расширение понятия реализма, предлагая рассматривать его в более широком стилевом контексте⁴². В свою очередь, в книге М.Халаминской, посвященной искусству республик Средней Азии и Казахстана, акцентируется внимание на актуальности проблемы национальной самобытности, в особенности в творчестве молодых художников, рассматривая её в региональном и историко - культурном аспектах⁴³.

К 1970 – 1980-м годам актуализация вопросов преемственности и традиций повлияла на направление исследований искусства республики. В работах таких учёных, как Е.Зингер, Н.Дмитриева, В.Лаковская, на фоне обновления и более свободного понимания реализма происходит переосмысление понятия "социалистический реализм". Возрастает интерес к особенностям творческого развития старшего поколения художников. В таких монографиях, таких как «Оганес Татевосян» Л.Шостко, «Александр Волков. Мастер "Гранатовой чайханы» М.Земской, мемуарах В.Уфимцева «Говоря о себе», а также в исследованиях Р.Такташа, посвящённых творчеству У.Тансыкбаева, А.Волкова и Усто Мумина⁴⁴, особое внимание уделяется вопросам преемственности, традиций и новаторства, интерпретации культурного наследия, а также вопросам национального своеобразия. В частности, в альбоме, посвящённом Уралу Тансыкбаеву, впервые с историко-культурной точки зрения рассмотрены ранние произведения художника, находящиеся в коллекции Нукусского музея⁴⁵. Коллективный труд «Искусство

⁴² Жадова Л.А. Современная живопись Узбекистана. — Ташкент: Государственное издательство художественной литературы, 1962. — 112 с.

⁴³ Халаминская М.Н. Искусство молодых. Очерки о художниках республик Средней Азии и Казахстана. — М. Советский художник. 1967. — 164 с.

